



MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA
O'ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLARNING
BOSHLANISH TARIXI (1991-1996)

Fayzillayev Azizullo Tursunboy o'g'li

Inomjon Qo'chqorov Izzatullayevich

AAF-102 guruh, Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti, Millat Umidi
Universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Gmail: azizullo8108@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17532648>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 4-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

*O'zbekiston, iqtisodiy islohotlar,
Resurs taqsimoti, bosqichma-bosqich
o'tish, "O'zbek modeli", mulkchilik
shakllanishi, sanoat islohotlari, milliy
valyuta, makroiqtisodiy barqarorlik.*

ABSTRACT

Ushbu maqola Mustaqillikning dastlabki yillarida (1991-1996) O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning boshlanish tarixini, ularning mohiyati va dastlabki natijalarini kompleks tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada "O'zbek modeli"ning shakllanish jarayoni, uning asosiy besh tamoyili va amaliy tatbiqidagi o'ziga xos xususiyatlar yoritilgan. Tadqiqotda tarixiy-tizimli yondashuv qo'llanilib, dastlabki mustaqillik davridagi qonun hujjatlari, rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar va ilmiy manbalar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida O'zbekistonning bosqichma-bosqich rivojlanish modeli asosida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning asosiy jihatlari: resurs taqsimotidagi nomutanosobliklarni bartaraf etish, mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini qayta qurish, milliy valyutani joriy etish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari ochib berilgan. Xulosa qilib aytganda, mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar "O'zbek modeli"ning besh tamoyili asosida muvaffaqiyatli amalga oshirilib, murakkab makroiqtisodiy muammolarni bartaraf etish, iqtisodiy pasayishni to'xtatish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish mumkin bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston chuqur institutsional va tizimli o'zgarishlar davrini boshidan kechirdi. Bu o'zgarishlar nafaqat sobiq SSSR tarkibida qo'llanilgan markazlashtirilgan reja iqtisodiyotidan uzilishni, balki yangi bozor iqtisodiyoti asoslarini yaratishni nazarda tutardi. Jumladan, quyidagilar murakkab vaziyatning o'ziga xos xususiyatlari sifatida namoyon bo'ldi: aholining turmush darajasi bo'yicha O'zbekiston sobiq SSSR tarkibida oxirgi o'rinlardan birida turar edi; aholining 60% dan ko'proq asosiy qismi yashaydigan qishloq joylarida industrial rivojlanishning ahamiyatli darajada orta qolishi

sharoitida iqtisodiyotda yirik sanoat shaharlaridagi gigant korxonalar-monopolistlarning haddan tashqari konsentratsiyasi va ixtisoslashuvi hukm surardi; iqtisodiyotda narxni tashkil etish va resurslarni taqsimlash bilan bog'liq kuchli nomutanosibliklar kuzatilar edi; mamlakat o'z davlatchiligining asoslarini yaratish zarurati oldida turardi; og'ir ekologik ahvol mavjud edi [1] Mazkur muammolar majmuasini hal qilish nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega edi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, murakkab o'tish davrida qabul qilinadigan qarorlar kelajakdagi taraqqiyot yo'lining muvaffaqiyatini belgilaydi. Shu sababli, O'zbekiston rahbariyati tizimli muammolarning ildizlarini chuqur o'rganish va ularni bartaraf etishning optimal yo'lini izlashga majbur bo'ldi. Respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotishini, shunga ko'ra ularni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi.[2] Bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish g'oyasi amalda qanday tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerakligi masalasi dolzarb vazifaga aylandi. Boshqa post-sotsialistik mamlakatlarda qo'llanilgan "zudlik bilan bozorlashtirish" modellari O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida samarali bo'lmasligi mumkin edi. Shu asosda mustaqil O'zbekiston o'zining o'ziga xos rivojlanish modelini ishlab chiqdi. Bu yo'l haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Ona yurtimiz baxtu iqbol va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" nomli kitibida shunday fikr bildirdi: "O'zbekistonda qabul qilingan, "o'zbek modeli" ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotini mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li".[3] "O'zbek modeli"ning besh tamoyili nafaqat iqtisodiy islohotlarning, balki butun milliy taraqqiyot strategiyasining asosini tashkil etdi. Bu tamoyillar shunchaki nazariy qoidalar emas, balki mamlakatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy haqiqatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan amaliy yo'riqnoma edi. Bu yo'lni tanlash oson bo'lmadi, chunki u xalqaro hamjamiyatning turli bosimlari va qiyin ichki sharoitlar sharoitida amalga oshirildi. O'z vaqtida, bizning taqdirimiz hal bo'layotgan o'ta og'ir va xatarli bir zamonda, turli xom-xayollardan voz kechib, bizga ko'rsatilgan tazyiq va zo'rovonliklarga qaramasdan, bugungi kunda dunyoda taraqqiyotning "o'zbek modeli" deb tan olingan, demokratik davlat, erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish, xalqimizning hayot darajasini munosib bosqichga ko'tarish bo'yicha chuqur o'ylangan rivojlanish yo'limizni qat'iy belgilab olganimiz, hech shubhasiz, tom ma'noda tarixiy yutuqimiz bo'ldi.[4] Bu tarixiy yutuq nafaqat siyosiy qarorlar darajasida, balki amaliy iqtisodiy natijalar darajasida ham o'z ifodasini topdi. Mustaqillik O'zbekiston xalqiga o'z boyliklari ustidan to'la huquqni berdi, bu esa milliy iqtisodiyotni qayta qurish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Tabiiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va moliya tizimi ustidan to'la nazoratni qo'lga kiritish yangi iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning asosiy shartiga aylandi. Iqtisodiy mustaqillik xalqimizni o'z yeri, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarga to'la egalik qilish huquqini berdi. O'z hududimizdagi barcha mulk, korxonalar O'zbekiston tasarrufiga olindi, mustaqil iqtisodiy siyosat yuritish, iqtisodiy taraqqiyot yo'lini o'zi belgilash erkinligi qo'lga kiritildi. Iqtisodiy mustaqillik mamlakatimizga mustaqil moliya-kredit, bank siyosatini yuritish, o'z davlat byudjetini yaratish va unga to'la egalik qilish, milliy valyuta, oltin zahirasi va valyuta jamg'armasini tashkil etish va ulardan xalqimiz farovonligi, yurtimiz obodonligi yo'lida mustaqil foydalanish imkoniyatini yaratdi.[5] Iqtisodiy mustaqillikning amalda ro'yobga chiqishi turli sohalarda keng qamrovli islohotlarni amalga oshirishni talab qildi. Ayniqsa, sanoat sohasidagi islohotlar mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va uni yangi global sharoitlarga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Sanoat tarmoqlarida mulkchilik shakllarini diversifikatsiya qilish va bozor mexanizmlarini joriy etish tarkibiy o'zgarishlarni

amalga oshirishning asosiy vositasi bo'ldi. Mustaqillik yillarida sanoat ham iqtisodiy-ijtimoiy yangilanish yo'lida rivojlandi. Bu jabhada ham olib borilgan islohotlar natijasida sanoat tarmoqlarida xilma-xil mulkchilik va xo'jalik yuritishning bozor usullari qaror topdi. Natijada, yurtimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishida bu islohotlarning samarasi benihoya katta bo'lib kelmoqda. Shunday ekan, istiqloq sharoitida O'zbekistonda sanoat sohasida olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlar va ularning ishlab chiqarish rivojiga ta'sirini o'rganish, tahlil qilish, kerak bo'lsa uni tadqiq etish bugungi kunda O'zbekiston tarixi fani va uning tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.[6] Sanoat islohotlari bilan bir qatorda moliya-bank tizimini qayta qurish ham mustaqil iqtisodiy siyosatni amalga oshirishning muhim sharti edi. Markaziy bank tizimini mustaqillashtirish, milliy valyutani joriy etish va mustaqil moliya-kredit siyosatini shakllantirish mamlakat iqtisodiy suverenitetini mustahkamlashning asosiy omillariga aylandi. Bu borada qonun chiqaruvchi hokimiyat oldida yangi qonun hujjatlarini ishlab chiqish vazifasi turardi. Mustaqillikning dastlabki yillarida respublikada Markaziy bank to'g'risida maxsus qonun yo'q edi. Bu tizim 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonun (mamlakat Mustaqillik kuni – 1991-yil 1-sentabr) doirasida ishlagan. Uning o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yo'li bilan takomillashtirilishi SSSR Davlat bankining viloyat bo'limi negizida O'zbekiston Markaziy bankini (MB) tashkil etish uchun huquqiy asos yaratdi.

Milliy valyuta – so'mning muomalaga kiritilishi mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirishni taqozo etdi va moliya sohasida islohotlarni chuqurlashtirish zaruriyatini oldindan belgilab berdi. Qolaversa, bir qonun doirasida bir-biridan mutlaqo farq qiladigan ikkita muassasa – Markaziy bank va tijorat banklarining huquqiy maqomi, maqsad va vazifalarini belgilab berishning iloji yo'qligi ayon bo'ldi. Bu omillar Ukraina Markaziy banki faoliyatini alohida qonun bilan tartibga solish maqsadga muvofiqligini belgilab berdi.[7] Mustaqillikning dastlabki yillarida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar qisqa muddat ichida o'zining samarasini ko'rsatdi. Murakkab makroiqtisodiy muammolarni bartaraf etish, iqtisodiy pasayishni to'xtatish va iqtisodiy o'sishning ijobiy tendensiyasini shakllantirish O'zbekiston tomonidan tanlangan rivojlanish modelining to'g'riligini isbotladi. Bu natijalar mustaqil iqtisodiy siyosatning ilmiy asoslanganligi va amaliy samaradorligini ko'rsatdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan murakkab muammolarning muvaffaqiyat bilan hal etilishi, makroiqtisodiy murvozanatni ta'minlanishi, dastlab iqtisodiy pasayishni bartaraf etilishi va so'ngra iqtisodiy o'sishga erishish davlatimiz iqtisodiy siyosati chuqur o'ylangan va ilmiy asosiangan ekanligidan dalolat beradi.[8]

Xulosa qilib aytganimizda o'z uyingizni qurayotganda birinchi bo'lib uning poydevorini barpo etkaningiz kabi bizning yurtimizda iqtisodiyotni yuksaltirish uchun mustaqillik yillarida birinchi uning poydevoriga asos solindi qo'yildi. Uning poydevorini mustahkam bo'lishi uchun birinchi navbatda uning loyihasi pishiq bo'lishi kerak. Bizning mamlakatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillarida bu borada ko'plab qonun loyihalari imzolandi, Prezident farmonlari e'lon qilindi. Demak yuksalish uchun, iqtisodiyotni rivojlantirish oldindan puxta reja asosida amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1],[2] Hamroev Shuhrat Sharofovich. *O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK ARAFASI VA UNING DASTLABKI YILLARIDA BOZOR IQTISODIYOTIGA O'TISH SHART SHAROITLARI* - Образование и инновационные исследования ISSN 2181-1709 (P); 2181-1717 (E) (2023 год № 12)

[3],[4] Islom Karimov. *ONA YURTIMIZ BAXTU IQBOLI VA BUYUK KELAJAGI YO'LIDA XIZMAT QILISH – ENG OLIY SAODATDIR. TOSHKENT-"O'ZBEKISTON"-2015*

[5] O.Ostonov. *O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI. (O'quv qo'llanma) T.: "Lesson Press" nashriyoti, 2022., 245 b.*

[6] Toshpulatov Nurbek, Iskandarov Quddus, Boboqulov Olmosbek. *MUSTAQILLIK YILLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR . - JOURNAL OF MARKETING,*

*BUSINESS AND MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57 - VOLUME 3, ISSUE 7 (December)
ISSN: 2181-3000*

*[7] Igamberdiyev S.X. Mahammadov A.G`. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL TIZIMI VA
UNING RIVOJLANISH TARIXI - JOURNAL OF MARKETING, BUSINESS AND
MANAGEMENT(JMBM)/SJIF FACTOR: 5.57 - VOLUME 3, ISSUE 7 (December) ISSN: 2181-3000*

*[8] L.S.KARIEVA. Makroiqtisodiyot. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. TOSHKENT - 2021*



INNOVATIVE
ACADEMY